Volume 3, Issue 1,2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM TASHKILOTLARINING AKADEMIK FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH


M. Muxamedova
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Akademik faoliyatni boshqarish” bo’limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda Respublikamizda oliy ta’lim tashkilotlari faoliyatini boshqarishda amalga oshirilayotgan islohotlar, oliy ta’limni boshqarishda yuzaga kelayotgan muammolar hamda uni rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan konsepsiyadan foydalanish nazarda tutilgan.
Kalit so`zlar: Ta’lim muassasalari, xalqaro reyting, ta’lim sifati, tizimli yondashuv, ta’lim qonunchiligi.

Xozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida jadal jarayonlar sodir bo‘lmoqda. Oliy ta’lim xizmatlari bozorida mahalliy va xorijiy ishtirokchilar soni jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Respublikada ularning ilmiy va moliyaviy mustaqilligini yanada oshirish yo‘llari orqali mehnat sharoitlarini tubdan o‘zgartirmoqda, bu esa jarayonlarni boshqarish tizimida samarali o‘zgarishlarni taqozo etadi. Muayyan oliy o‘quv yurtlari va umuman ta’lim sohasining raqobatbardoshligini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlarini yuqori malakali mutaxassislar bilan yanada ta’minlash asosiy ustuvor vazifalar bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning mazmun-mohiyati, birinchi navbatda, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarini jadal suratlar bilan izchil rivojlantirishdan iborat. Bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda tarmoqlar uchun chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega salohiyatli yosh kadrlarni tayyorlash alohida o‘rin egallaydi.

Mazkur muammolarni hal etishning uslubiy asosini 2030-yilgacha bo‘lgan davrda oliy ta’limni rivojlantirish milliy konsepsiyasi, milliy universitetlarning iqtisodiy va akademik mustaqilligini ta’minlash va kengaytirish bo‘yicha hukumat qarorlari, materiallar va ekspert xulosalari tashkil etadi.



1-rasm. Respublikamizda Oliy ta’lim tashklilotlarining mulkchilik shakli va tashkiliy turlari bo’yicha ko’rsatkichlari.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi samaradorligini, jumladan, ta’lim xizmatlari bozorida faoliyat yuritayotgan alohida universitetlarning raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha boshqa mamlakatlar tajribasini faol o‘rganmoqda. Avvalo, 2030-yilgacha universitet ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilinib, infratuzilmani rivojlantirish konturlari va aniq vazifalar belgilab olindi.Ta’limning muqobil turlari va shakllarini ishlab chiqish va joriy etishga alohida e’tibor

[1] https://stat.edu.uz

qaratilmoqda. O‘zbekiston Oliy talim tashkilotlarida 2019-2020 o‘quv yilidan maxsus sirtqi bo‘lim talabalari uchun darslar masofaviy onlayn rejimida o‘tkazila boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil dekabrda qabul qilingan qarori Respublikaning bozor islohotlariga sodiqligini tasdiqladi. 41 ta universitet (40,8%) akademik va moliyaviy mustaqillikka erishdi, ularda transformatsiya bo‘limlari ochildi, universitetlar bo‘sh bino va inshootlarda pullik xizmatlar ko‘rsatish tartibini, shuningdek, avtotransportning yillik chegarasi va ularga qo‘yiladigan talablarni mustaqil belgiladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan oliy ta’lim tashkilotlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish, ta’lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqish va ularni xalqaro reytinglarga kirishiga har tomonlama ko‘maklashish maqsadida Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan so‘nggi uch yilda oliy ta’lim muassasalarining Milliy reytingi e’lon qilinib borilmoqda. Oliy ta’lim standartlarimiz ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirilmoqda. Har yili OTMning reytingi o‘rganilib chiqib, OAV shaffoflik va oshkorolik bilan xalqqa taqdim etilmoqda. Bu oliygohlar o‘rtasida raqobot muhitining shakllanishiga sabab bo‘ldi.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Hozirgi kunda oliy ta’lim muasasalarini boshqarish sohasida har bir rahbar xodimlar va professor-o‘qituvchilar normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan o‘z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini bilishi lozim.

Ayni paytda ta’lim tizimining oliy ta’lim turini amalga oshiruvchi oliy ta’lim muassasasi mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, iqtisodiyotning real tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassis-kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta’lim muassasalarida ta’lim tizimining shakllanishi va rivojlanishi yangi innovatsion sharoitlarga va iqtisodiyot talablariga muvofiqligini ta’minlashga barcha ta’lim muassasalari amalda harakat qilmoqdalar.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022 (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoev “On the development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026”. - Tashkent, 2022).

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, ПҚ – 2909 -сонли, 18-сон, 313-модда , 2017 йил 20 апрель.

3. Хакимова Х.Х. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" Процессный подход к управлению образовательной организацией. том 10 № 5 (2022): 10(5), 137–145. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a16

4. Соломахо В.Л., Серенков П.С. Нормирование качества в системе международных стандартов. Источник: Управление качеством образования: теория и практика / под ред. А.И. Жука, Н.Н. Кошель. – Минск : Зорны верасень, 2018. – С. 91 – 117

5. https://stat.edu.uz